

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI URGUT FILIALI**

**MADANIYATLARARO MULOQOTNING
ADABIY-LISONIY TAKOMILI HAMDA TARJIMA
NAZARIYASI VA LINGVODIDAKTIKANING
DOLZARB MUAMMOLARI**

**respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI**

(31-may, 2025-yil)

Urgut – 2025

Madaniyatlararo muloqotning adabiy-lisoniy takomili, hamda tarjima nazariyasi va lingvodidaktikaning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU UF, 2025. – 336 b.

Mazkur to‘plamda Samarqand davlat universiteti Urgut filialida bo‘lib o‘tgan “Madaniyatlararo muloqotning adabiy-lisoniy takomili, hamda tarjima nazariyasi va lingvodidaktikaning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari jamlangan. Unda taniqli olimlar, tadqiqotchilar va yosh izlanuvchilarning o‘zbek, ingliz, rus, fransuz va turk tillarida yozgan tezis va ilmiy maqolalari o‘rin olgan. To‘plamda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, lingvodidaktika va madaniyatlararo muloqotning dolzarb muammolari tadqiq etilgan.

Ushbu to‘plam o‘zbek va xorijiy til ta’limi, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi, tarjima nazariyasi bilan shug‘ullanayotgan ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchi mutaxassislar, doktorant va magistrantlar uchun muhim ilmiy-metodik manba sifatida xizmat qiladi.

Tahrir hay’ati

Sh.D. Berdiyev dots. (rais)
D.R. Mardonov dots. (rais o‘rinbosari)
B.X. Mardiyev dots. (mas’ul muharrir)
I.T. Babakulov prof. (a’zo)
A.A. Asrorov dots. (a’zo)
I.O. Mashenkova dots. (a’zo)
U.K. Sanaqulov PhD. (a’zo)
N.O. Yusupov (mas’ul kotib)

To‘plamdan o‘rin olgan tezis va maqolalarning ilmiy saviyasi, sifati va dalillarning haqqoniyligi, mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

ISBN 978-9910-645-35-8

© Samarqand davlat universiteti Urgut filiali, 2025

11. Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. -Leipzig, 1967. - 518 S.
12. Paul H. Deutsche Grammatik. Vierter Band. VEB Max Niemeyer Verlag. - Halle (Salle), 1955. - 425 S.
13. Brecht Bertolt. Dreigroschenromam. Aufbau-Verlag. - Berlin und Weimar 1968. - 493 S.
14. Flegel Walter. Ein Katzensprung. Militärverlag. Berlin, 1976, - 251 S.

SINTAKTIK DERIVATSIYANING MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR O'RGANILISHIDAGI QARASHLAR

Azizova Dildora
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz filologiyasi kafedrası katta o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0005-7104-8604>
dildoraazizova1213@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sintaktik derivatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan murakkab qo'shma gaplarni o'rganish masalasiga munosabat bildiriladi. Gap va uning turlari haqidagi qarashlar Panini grammatikasidan yunon falsafasi, Sharq allomalari va yangi davr yevropa tilshunosligiga qadar tarixiy izchillikda ko'rib chiqiladi. Muallif gapni til birliklarining maksimal sintaktik faollik olishi uchun makon vazifasini o'taydigan nutqning minimal birligi sifatida talqin qiladi hamda "qo'shma gap" terminining nutq birliklari iyerarxiyasi qonuniyatlariga muvofiq kelmasligini asoslaydi. Qo'shma gap derivatsiyasidagi operandlar sodda gaplar bo'la olmasligi, ular sodda gaplarga faqat o'xshashligi ta'kidlanadi. V.V.Vinogradov, I.F.Vardul, A.M.Peshkovskiy, T.V.Beloshapkova va o'zbek tilshunoslarining qarashlari qiyosiy tahlil qilingan holda "qo'shma gap" o'rniga mikromatn mohiyatini o'zida mujassam etgan "murakkab sintaktik qurilma" terminini qo'llash taklif etiladi. Xulosada derivatsiyani boshqa lingvistik jarayonlardan farqlash mezonlari ko'rsatiladi va fanlar integratsiyasi asosidagi yondashuvning nutq lingvistikasi hamda kompyuter lingvistikasi rivoji uchun ahamiyati dalillanadi.

Kalit so'zlar: sintaktik derivatsiya, murakkab sintaktik qurilma, qo'shma gap, sodda gap, operand, operator, derivat, mikromatn, nutq birliklari iyerarxiyasi, sintaktik sath, matn lingvistikasi, kommunikativ yondashuv, fanlar integratsiyasi.

Gap va uning lingvistik tavsif qadimgi asrlardan beri ham tilshunoslik masalalari doirasida o'ziga xos ilmiy bahslar va munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Buni Panini grammatikasi va undan xabar beruvchi manbalar, Yunon faylasuflarining fikr va uning ifodasi hamda tafakkur va til masalalari xususidagi munozaralari mahsuli borasidagi qarashlarni mujassam qilgan manbalarda ham aks etganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Gap haqidagi nazariya O'rta asr Sharq allomalarining qarashlarida, Yangi asrlarda yevropa fanida ham o'ziga xos munozaralarga sabab bo'lgan. Mazkur masala qaysi davrda kishilarning qiziqishlariga sabab bo'lgan bo'lsa, bu o'sha davr jamiyatining, o'sha davr ilm-fanining ehtiyojlari va tamaddun taraqqiyoti uchun muhim masalalar yechimiga yo'l topish bilan izchillik hamda uzviylik kasb etgani izoh talab etmaydi⁶³.

Zamonaviy hayot barcha sohalar tizimida tub burilishlar yasamoqda. Yuqori texnologiyalarga asoslangan qurilmalar, ularning ishlash jarayoni bilan bog'liqlikda mavjud bo'lib turgan kommunikativ tizimlar ham o'ziga xos ilmiy sohalarining integratsiyasi bilan bog'liqlikda rivojlanayotgani ham sir emas. Ana shu nuqtayi nazardan qaralganida, tilshunoslik fanining ham o'z obyekti bo'lgan tilga va nutqqa zamonaviy talablar asosida yondashuvi katta zarurat, ehtiyoj hamda kechiktirib bo'lmas tadqiqotlarni ilgari surish vazifasini qo'ymoqda. Bunda fanlar integratsiyasiga yo'naltirilgan yondashuvlar nihoyatda muhim ekani aniq bo'lib bormoqda. Tilning amalda qo'llanishi nutqni, nutqning realligi kommunikativ munosabatni, kommunikativ munosabat esa, o'z navbatida,

⁶³Qarang: Xayrullayev X. Tilshunoslik nazariyasi. Darslik. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2024. – 208 b.; Xayrullayev X.Z., Ibragimova M.A. Tilshunoslik asoslari. Darslik. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2024. – 266 b.

dinamik faoliyatni shakllantirishi, shunga asos bo'lishi ayni davr fani uchun kechiktirib bo'lmas masalalar yechimiga zarurat paydo qilmoqda⁶⁴.

Gap va uning turlarini nafaqat til va nutq nuqtayi nazaridan, balki kommunikativ yondashuv asosida tadqiq etilishi ayni zaruratning asosi ekanini hisobga olib ish ko'rish tilshunoslikning zamonaviy masalalari sirasida katta o'rinni egallab ulgurdi.

Shu kabi zarurat o'z davri uchun muhim yondashuvlarni insoniyat tarixining barcha davrlarida ham vujudga keltirgan va bu jarayon qayta-qayta sodir bo'laveradi, zamonaviy tusda takrorlanaveradi.

Gapning muhim belgilaridan biri bu uning til birliklaridan tarkib topgan nutqning minimal birligi ekanida ham ko'zga tashlanadi. Boshqacha aytganda, gap tilning maksimal birliklari sintaktikasi evaziga shakllangan nutqning minimal birligidir. Uning ichida til birliklarining erkin kombinatsiyasi kuzatiladi⁶⁵. Shunga binoan tilning real qo'llanishi nutq ekanini inkor etib bo'lmaydi. Demak, gap til birliklarining maksimal faollik olishi uchun makon vazifasini o'taydi. Biroq gapning dinamik xarakterini va shu tabiati bilan namoyon bo'lishini tasavvur etishda unga o'zidan katta birlikning mavjud bo'lishi talab etiladi. Bunday birlik, albatta, nutq birligi bo'lishi tabiiydir.

Gapning va nutqning boshqa birliklarining ham lingvistik maqomining qat'iy belgilanmagani tilshunoslikning nutq masalalari tadqiqi bobida hali o'z yechimini kutayotgan masalalari ko'pligidan dalolat beradi. Shu o'rinda qayd etish joizki, nutqning tadqiqiga qaratilgan tadqiqotlarda gap masalalasiga qayta-qayta murojaat etilib kelinayotganining boisini ham ana shundan deb bilish, bizningcha, to'g'ri.

Gap va uning turlari, gap va uning tuzilishi, gap va uning nutqning o'zidan katta birliklari bilan munosabati, gap va nutqning gapdan katta birliklari muammosi tilshunoslikda hali uzil-kesil hal etilganicha yo'q. Uzoq davrlar mobaynida nutq birligi sifatida gapni o'rganish bilan cheklanish, undan katta birliklar xususidagi qarashlarga e'tiborning kuchsiz bo'lgani tilshunoslik adabiyotlari tadqiqida ko'zga tashlanadi. Nutq lingvistikasi tom ma'noda o'zining rivojlanish bosqichiga kirib borayotgan bugungi kunda gap va undan katta birliklar masalalariga aniqlik kiritish kechiktirib bo'lmas masalalar sirasidan o'rin olib ulgurdi. Gapning lingvistik maqomining qat'iy belgilanishi nutq lingvistikasining rivojiga, shuningdek, kompyuter lingvistikasi masalalarining rivojida jadallikning ta'minlanishiga ko'p tomonlama bog'liqdir.

Shu bois, gap deganda faqat sodda gap nazarda tutilmog'i lozimmi yoki bir necha sodda gaplardan iborat sintaktik qurilma sifatida qaralayotgan – murakkab sintaktik qurilmalarni ham gap deb, aniqroq qilib aytganda, qo'shma gapni ham gap deb tavsiflash to'g'rimi, – degan nazariy masalalarga yechim taqdim etuvchi savolga ham aniqlik kiritish zarurdir. Qo'shma gapning derivatsiyasi sodda gapdan iborat bo'lgan operandlarga tayanadimi yoki bu operandlar lingvistik mohiyatiga ko'ra boshqacha tavsiflanishi kerakmi, buni aniqlash masalasi ham ko'plab munozaralarga yakun yasashi mumkin bo'ladi. Mazkur qarash zamirida qo'shma gaplarning sintaktik tashkil etuvchilari sodda gaplar bo'la oladimi degan mulohaza atrofida qarashlarga aniq munosabat bildirilishi lozim bo'ladi. Bizningcha, mazkur savolning qo'yilishi to'g'ri va asoslidir. Chunki, sodda gapning talaffuzi, uning fikr ifodasi uchun nisbatan sodda tuzilishli ekanini so'zlovchiga qo'shma gapning talaffuzi va tinglovchiga ma'lumot yetkazilishiga qaraganda qulayliklarga ega ekanida ham namoyon bo'ladi. Basharti, sodda gap (sodda sintaktik qurilma) va qo'shma gap (murakkab sintaktik qurilma) qiyoslanganida, qo'shma gapning sodda gaplardan tuzilishi haqiqat sifatida qayd etilar ekan, unda yangi hosila struktura sifatida avvalgi ikki va undan ortiq sodda gap strukturasining shunchaki bog'lanishidan farqli mazmun va shakl ifodasi mavjud emasmi, degan fikr ham shakllanishi aniq. Bu esa, o'z o'rnida, qo'shma gapning bir necha sodda gapdan tarkib topishi xususidagi qarashlarni

⁶⁴Qarang: Xayrullayev X, Buriyev X. Python dasturlash tili. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 80b. ISBN 168-418-232-2322-255-154; Xayrullayev X., Rustamov R. Algoritmilar nazariyasi. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025. – 170 bet; Xayrullayev X.Z., Rustamov R.T. Dasturlash asoslari. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025. 152 bet; Xayrullayev X.Z., Axmedov E.N. Statistika. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025. – 248 b.

⁶⁵Qarang: Хайруллаев Х.З. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2008. – 80 б.

shubha ostiga qo'yadi. Demak, qo'shma gap tarkibidagi operandlar sodda gaplarni taqazo etmaydi. Ular shunchaki sodda gaplarga o'xshash bo'lishi mumkin, xolos.

V.V.Vinogradov gap bo'laklari haqida munosabat bildirganida, ikkinchi darajali bo'laklar masalasiga alohida e'tibor qaratadi va ikkinchi darajali bo'laklarning morfologik tamoyillarga tayanib belgilanishini qayd etadi va buning zahirida ikkinchi darajali bo'laklar gap strukturasini sun'iy tarzda sxemalashtirishini alohida ta'kidlaydi. Ushbu holatni sof grammatik qonuniyatlardan chekinish sifatida baholaydi⁶⁶.

Bunday fikrning yana ham aniqroq ifodasini I.F.Vardulning qarashlarida ham kuzatish mumkin. I.F.Vardul gap bo'laklari xususidagi nazariyaning ko'plab tushuncha va mezonlarining noaniqligi hamda kamchiliklari bu boradagi qiyinchiliklarning kelib chiqishi asosidir, – deb baholaydi⁶⁷.

Ammo, gap va uning sodda gap hamda qo'shma gap deb nomlanuvchi turlari masalasi bu bilan ham o'zining to'liq lingvistik tavsifiga ega bo'la olmadi. Chunki, qo'shma gap tushunchasi mohiyatida gap bilan gapning qo'shilishidan hosil bo'lgan gap, degan xulosaviy qarash mujassamlashganini inkor etish qiyin. Bunda gap bilan gapning birikuvi qo'shma gapni hosil qilishi borasidagi munosabat o'zining chuqur ifodasini topgani kuzatiladi. Qo'shma gap terminining qo'llanishi nutq birliklarining iyerarxik munosabati qonuniyatlariga ko'ra munozaralidir. Zotan, qo'shma gap ham gap deb hisoblanar ekan, ikki va undan ortiq gapning qo'shilishidan shakllangan derivatning, boshqacha aytganda hosila qurilmaning yana gap deb nomlanishi til va nutq birliklarining iyerarxik qonuniyati mezonlariga ziddir⁶⁸.

Qo'shma gapda *mikromatn* tushunchasi mujassamligi ham ayrim tilshunoslar tomonidan qayd etiladi. Chunki, kamida ikki gapning bog'lanishi mikromatnga asos bo'lishi xususidagi qarashlar tilshunoslik adabiyotlarida tez-tez kuzatiladi. Shuni nazarda tutib, *qo'shma gap* terminining o'rniga mikromatn tushunchasini o'zida mujassam etgan *murakkab sintaktik qurilma* terminidan foydalanish mumkinligi tavsiya etiladi⁶⁹ hamda bu orqali *sodda gap* terminiga ham ehtiyoj qolmasligi, demak, *qo'shma gap* tushunchasi mavjud bo'lmagach, *sodda gap* tushunchasiga ham zarurat yo'qoladi va faqat *gap* tushunchasi va termini iste'molda qo'llaniladi.

Tilshunoslikda sintaktik sath tushunchasi keng ko'lamli iste'molda bo'lib, uning birligi yoki tadqiq obyekti xususida fikr bildirilganida, aksariyat hollarda so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap qayd etiladi. Qo'shma gap sintaktik sathning eng yuqori birligi sifatida qayd etilishi rus tilshunosligida ham alohida qayd etiladi⁷⁰. Biroq, rus tilshunosligining boshqa vakillari *qo'shma gap* terminining qo'llanishiga ijobiy munosabatda bo'lmaydilar⁷¹. Nutqdagi bunday sintaktik qurilmalarni *sodda gaplarning bog'lanishi*, *murakkab butunlik* (сложное целое), *sodda gaplardan tuzilgan kompozitsion-sintaktik birlik* mazmunidagi atamalar bilan nomlaydilar⁷².

Murakkab sintaktik qurilmaning mikromatn ekanligini nisbiy tushunmoq lozim, zotan, mikromatn bir grafema bilan, so'z, so'z birikmasi va gap bilan ifodalanishi ham mumkin. Biroq ularning matn maqomini olishi muayyan nutq muhitiga bog'liq. Murakkab sintaktik qurilma esa har qanday nutq muhitida ham mikromatn maqomida keladi⁷³.

Albatta, gapning sintaktik faollik olishi uning o'zidan yuqori turuvchi nutq birligi, ya'ni matnda yuzaga keladi. Mazkur jarayonni ham turlicha tushunilishi holatlari kuzatilishi mumkin. Matnning birligi sifatida gap (jumla), xuddi shuningdek, murakkab sintaktik qurilma, abzas

⁶⁶Qarang: Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М., 1975. – С.281-282. (– 642 с.); Турниязов Н. Яна гап бўлаклари ҳақида баъзи қайдлар// Буюк ипак йўлида умумлисоний ва миллий қадриятлар: тил, таълим ва маданият Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. – Самарқанд-Шанхай, 2017. – 9-13 б.

⁶⁷Qarang: Вардудль И.Ф. Основы описательной лингвистики (синтаксис и супрасинтаксис). –М., 1977. – С.189. (– 351 с.)

⁶⁸Qarang: Хайруллаев Х.З. Тил ва нутқ бирликларининг иерархик муносабатлари: Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 73 б.

⁶⁹Qarang: Turniyozov B.N. O'sha nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati, o'sha bet.

⁷⁰Qarang: Белошапкова Т.В. Когнитивно-дискурсивная парадигма лингвистического знания и категория аспектуальности // Вестник МГУ. Серия 9, Филология. – М., 2008.-С.35-43.

⁷¹Qarang: Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Учпедгиз, 1938, 448 с.

⁷²Qarang: Синтаксис современного русского языка. –Санкт-Петербург, 2008.–С.199.

⁷³Bu haqda qarang: Турниязов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд, 2004.– 58 б.

tushunilishi mumkin. Bunda gap va murakkab sintaktik qurilmalar abzas tarkibida faollik olishi nazarda tutiladi. Abzas esa bobning tarkibida aktuallashadi. Ba'zi matnlarning boblarga bo'linmagan bo'lishi ham bunda jiddiy ahamiyat kasb etmaydi. Bizningcha, boblarga ajratilmagan matnning o'zini bitta bob deb tasavvur etiladi. Shu bobning tarkibida bir yoki bir necha abzas faollashishi mumkin bo'ladi.

Xulosa

Derivatsiya termini va u orqali ifodalanayotgan tushunchaning zamirida so'z yasalishidan tortib, so'z shaklining hosil bo'lishi, so'z birikmasi va gapning sintaktik shakllanishi, qo'shma gap, matn va matnning barcha komponentlari bog'lanishiga oid nazariy tasavvurlar ko'zda tutiladi. Bu esa bugungi kunda sintaksisning o'rganish sohasini kengayib borayotganini e'tirof etish hamda buning sabablarini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Derivatsiyani boshqa lingvistik jarayon va hodisalardan farqlash muhim. Yasama so'zning *so'z yasalishi* nuqtayi nazaridan qilingan tahlili va ayni shu so'zning *derivatsion* tahlili farqlanadi. Chunki, so'z yasalishida asosni *yasovchi qo'shiladigan komponent* taqazo etsa, shu so'zning *derivatsion* tahlilida yasovchi formant (qo'shimcha) derivatsiyaning *operatori* – bosh unsuri maqomida bo'ladi.

Bunday holatni *gap* va *qo'shma gap* derivatsiyasida ham kuzatish mumkin. Bu esa nutq birliklarining sintaktikasini va mazmuniy sintaktik hamda kommunikativ funksiyalarini aniqlash, ularning real qo'llanishi bilan bog'liq nutq masalalarini hal etishda tayanch nuqta vazifasini o'taydi hamda bu boradagi tadqiqotlar uchun ma'lum darajada qimmatli mezonlar yaralishida asos bo'la oladi.

Fanlar integratsiyasiga yo'nalgan yondashuvlar bugungi kun taraqqiyoti va istiqbol uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Tilning amalda qo'llanishi nutqni, nutqning realligi kommunikativ munosabatni, kommunikativ munosabat esa, o'z navbatida, dinamik faoliyatni shakllantirishi, shunga asos bo'lishi ayni davr fani uchun kechiktirib bo'lmas masalalar yechimiga zarurat paydo qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Xayrullayev X, Buriyev X. Python dasturlash tili. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 80b. ISBN 168-418-232-2322-255-154.
- 2) Xayrullayev X., Rustamov R. Algoritmilar nazariyasi. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025. – 170 bet.
- 3) Xayrullayev X.Z., Rustamov R.T. Dasturlash asoslari. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025. 152 bet.
- 4) Xayrullayev X.Z., Axmedov E.N. Statistika. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025. – 248 b.
- 5) Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М., 1975. – С.281-282. (– 642 с.)
- 6) Вардуль И.Ф. Основы описательной лингвистики (синтаксис и супрасинтаксис). –М., 1977. – С.189. (–351 с.)
- 7) Хайруллаев Х.З. Тил ва нутқ бирликларининг иерархик муносабатлари: Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 73 б.
- 8) Белошапкина Т.В. Когнитивно-дискурсивная парадигма лингвистического знания и категория аспектуальности // Вестник МГУ. Серия 9, Филология. – М., 2008.-С.35-43.
- 9) Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Учпедгиз, 1938, 448 с.

MUNDARIJA

I SHO‘BA

Болтабоев Ҳ. ТУРКЧИЛИК ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ АСОСИ СИФАТИДА	3
Ўмит АТЕҶ. ANAVATANIMIZ TÜRKİYE VE ATAYURDUMUZ TÜRKİSTAN.....	9
Абишев А. «УЗБЕКИСТАН И КАЗАХСТАН: ВЕКТОРЫ ДРУЖБЫ И ВЗАИМОПОНИМАНИЯ».....	19
Atadjanova Sh. NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TIL O'QITISH XUSUSIDA.....	22
Haydarov K. MA'NAVİY TARBIYADA JALOLIDDIN RUMIY FALSAFASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	24
Журакулов Р., Г.Журакулий. РОЛЬ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РАССКАЗАХ А.П.ЧЕХОВА..	26
Muhammadiyev A. MUHYI VA QORIYLAR IJODIDA IRFONIY OBRAZLAR YARATISHDAGI AN'ANAVIYLIK VA YANGILANISH.....	28
Muxitdinova N. XIX ASRDA LINGVODIDAKTIKAGA OID QARASHLAR TAKOMILI XUSUSIDA.....	34
Холмухамедов Б. ҚУРЪОНИ КАРИМ МАЪНОЛАРИНИНГ ТАРЖИМА... ВА ТАФСИРИ ХУСУСИДА.....	37
Abdiyev M., O'rozaliyeva U. ALISHER NAVOIY ASARLARIDA YOSH AVLOD NUTQ ODOBI MASALALARI.	39
Abdurahmonov M. ABDUSAID KO'CHIMOV ASARLARIDAGI SHEVAGA XOS UNSURLAR XUSUSIDA.....	41
Madraximova N. OYBEK SHE'RIYATIDA FASL FALSAFASI.....	44
Mamasoliyev I. RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI SEMANTIK O'ZLASHMALAR (OMMAVIY AXBOROT MATERIALLARI ASOSIDA).....	46
Akhrorova N. R. OTANING FARZAND TARBIYASIDAGI ROLI: HARPER LINING "MAZAQCHINI O'LDIRISH" ROMANI MISOLIDA.....	48
Asrorov A., Ergasheva O. ATOQLI SHOIR ORIFJON IKROMOV SHE'RIYATIGA CHIZGILAR.....	52
Halimov S. ALISHER NAVOIY VA SHOH G'ARIB MIRZO (G'ARIBIY).....	55
Berdimuratova M. NOVERBAL VOSITALARNING TASNIFI HAQIDA MULOHAZALAR.....	61
Berdirasulova N. ZAMONAVIY SHE'RIYATDA RUHIY KECHINMA TALQINI (Guljamol Asqarova va Xosiyat Rustamova ijodi misolida).....	63
Xaydarova D. QANDOLATCHILIKKA OID TERMINLARNING ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BERILISHI.....	66
Muxammadiyev N. ALISHER NAVOIY ASARLARI VA KITOB-SHAHRISABZ SHEVALARIDAGI LEKSEMALAR MUNOSABATI.....	69
Ergasheva Z. THE SIGNIFICANCE OF WINGED WORDS IN THE WORKS OF ABDULLA QODIRIY.....	72
Rakhmiddinova M. EUPHEMISMS AND THEIR POSITION IN THE LANGUAGE WITH THEIR STYLE.....	77
Juraqobilova X. SHE'RIY MATNLARDAGI KOGNITIV METAFORA MODELLARINING POETIK TALQINI.....	81
Mardiyev B. SHAXS NOMLARINING O'RGANILISH TARIXI VA U BILAN BOG'LIQ NAZARIY QARASHLAR.....	84
Maxsumov M. NAFSNING TASAVVUFIY MANZARASI: ALISHER NAVOIYNING ("NAVODIRUN NIHOYA" DEVONI MISOLIDA).....	87
Nazimova H. EPIK TAFAKKUR VA DOSTON BADIYYATI.....	89
Sanaqulov U. "MAJOLIS UN-NAFOIS"DA G'ARIBIY IJODIGA TAVSIF.....	94
Karjavuv G'. "ZARBULMASAL" ASARINING POETIK TAHLILI.....	96

Xolmurodov X. ALISHER NAVOIYNING “BADOYI’ UL-BIDOYA” DEVONIDA OBRAZLAR KO’CHISH-O’ZGARISHI HODISASI.....	98
Qurbonov Z. HAYDOVCHILAR NUTQIDA NOVERBAL MULOQOT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PRAGMATIK TADQIQI.....	102
Yoqubov I. O’ZBEK ADABIY TILI VA ATAMALASHTIRISH HAQIDA JADIDLARNING QARASHLARI.....	105
Maxmudov A. ALISHER NAVOIY IJODIDA CHORIYORLAR OBRAZINING TASAVVUFIIY VA AXLOQIIY TALQINI.....	108
Boymanov E. XATIRCHI TUMANIDAGI TURISTIK MANZILLAR SIFATIDA E’TIROF ETILGAN AYRIM JOY NOMLARI ETIMOLOGIYASI.....	111

II SHO‘BA

Бабакулов И. ОБ ИЗУЧЕНИИ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЦЕПОЧЕК ИМЁН ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	115
Ubaydullayeva M. O’ZBEK VA QIRG‘IZ ETNOMADANIYATIGA DOIR TERMINLAR TAHLILI.....	119
Raxmatova X. ZID MA’NOLI SO‘ZLAR O‘QUV LUG‘ATIGA QO‘YILADIGAN TALABLARNING TAKOMILLASHISHIDA LINGVISTIK TALQIN TAMOIYILLARI.....	123
Ibragimova M. SAMARQAND VILOYATI ETNOGRAFIYMLARINI O‘RGANISHNING DOLZARB MASALALARI.....	126
Karimova M. O‘ZBEK TILIDAGI O‘ZLASHMALAR XUSUSIDA.....	
Владимир П. «ЛЮДИ – АПА И АКА»: УЗБЕКИСТАН В ВОСПОМИНАНИЯХ РОСИНЫ ЗЕЛИКИНОЙ.....	130
Jumaniyazova M. INGLIZ VA O‘ZBEK MAQOLLARINING LINGVOKULTUROLOGIK EVOLYUTSIYASI.....	133
Esirgapov M. MAIN TYPES OF LEXICAL-SEMANTIC CHANGES.....	136
Yuldosheva G. DERIVATION BIRLIKLARDA ADABIY ME‘YORNING IFODALANISHI....	139
Muzaffarova N., A‘zamova M., G‘ulomova M. TALABALARNING LINGVISTIK VA MADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FRANSUZ TILINING O‘RNI.....	143
Yakubova S. ISMOILXON FAQIRIY ASARLARIDA UCHRAYDIGAN SHEVALAR LEKSIKASI.....	145
Sonniboyev O. BARCHINOY VA PENELOPA PORTRETIGA CHIZGILAR.....	150
Omonov Sh., Ulug‘bekova A. MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASIDAGI DOLZARB MASALALAR.....	154
Narzullayeva M. PRIMQUL QODIROVNING ASARLARINING TILINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI.....	156
Toshboyeva D. O‘ZBEK TILI DO‘PPICHILIK LEKSIKASIGA OID BA‘ZI TERMINLARNING IZOHI VA ULARNING ETNOMADANIYAT HAMDA LINGVISTIKADA TUTGAN O‘RNI.....	160
Xasanova D. BOTIRXON VALIXO‘JAYEVNING IJTIMOIY VA ILMIY FAOLIYATI.....	162
Hamrayev I. O‘ZBEK TURKCHASI VA TURKIYA TURKCHASINING TOVUSHI JIHATIDAN SOLISHTIRISH.....	168
Разакова М. ТЕОРИЯ РУССКОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ.....	171

III SHO‘BA

Mamasoliyev I. ILOVA KONSTRUKSIYA TARKIBIDAGI KOMPONENTLARNING KOMMUNIKATIV MUNOSABATLARI.....	175
Mashenkova I.O. ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE STUDENT AUDIENCE: PEDAGOGY, PRACTICE, AND CAUTION.....	179
Allayorova S. PEDAGOGIK INNOVATION LOGISTIKANING KOMMUNIKATIV MULOQOTNI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIRI.....	180

Juraqobilova X., Nurullayev J. FRANSUZ TILIDAGI EKPRESSIV-EMOTSIONAL FE'LLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	182
Boymaxmatova D. DISKURSIV YONDASHUV: ONA TILI TA'LIMIDA MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSI SIFATIDA.....	185
Eshbekova D. TALABALARDA NUTQIY KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	187
Karimova G. SIFAT SO'Z TURKUMINING MORFOLOGIK RAZMETKALANGAN YIG'INDISI TIL KORPUSINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA.....	191
Isroilova E'. FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING IJTIMOY PEDAGOGIK ZARURIYATI.....	193
Nuraliyev G'. METOFORIK XUSUSIYATGA EGA BO'LGAN TAQLID SO'ZLAR TALQINI (TOG'AY MUROD ASARLARI ASOSIDA).....	195
Kadirova M. LANGUAGE ETIQUETTE IN INTERCULTURAL COMMUNICATION: FUNCTIONAL AND TRANSLATIONAL PROPERTIES OF RESPECTFUL MEANS.....	197
Qaxorov P. PEDAGOGIK JARAYONDA INSON QADR-QIMMATI VA GO'ZALLIGINING KOMMUNIKATIV-ESTETIK ASOSLARIDA TALQINI.....	200
Radjabova D., Raximova Sh. OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRILGAN KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYAGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MODELII.....	203
Sharipova L. TALABALARNI NEMIS TILIGA O'RGATISHDA O'YINLI METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	206
Нуриддинова С., Усманова Х. ТУРИЗМ ВА МЕХМОНДЎСТЛИК ЙЎНАЛИШЛАРИДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШДА КОММУНИКАТИВ МУЛОҚОТНИНГ ЎРНИ.....	208
Eshaliyeva R. OLMOSHLARNING DEYKTIK VA ANAFORIK XUSUSIYATLARI.....	212
Sulaymonova F. G'AFUR G'ULOMNING "SHUM BOLA" QISSASIDAGI ATOV GAPLAR TAHLILI.....	215
Boltayeva H. "4K" MODELIDAN FOYDALANIB O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQANI RIVOJLANTIRISH.....	218

IV SHO'BA

Садыкова М. ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНО ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ В ВУЗАХ.....	223
Soipov U., Tursunboyeva Z. O'ZBEK VA TURK TILLARIDAGI IBORALARNING SEMANTI K XUSUSIYATLARI.....	225
Бахриева III. ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКУ В СОПОСТАВИТЕЛЬНОМ АСПЕКТЕ.....	228
Sayfullayev X. SOMATIK KOMPONENTGA EGA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA).....	233
Alieva G. L'ÉTUDE DES ETHNONYMES FORMÉS À PARTIR DE TOPONYMES DANS LA LINGUISTIQUE FRANÇAISE: APPROCHE LEXICALE, MORPHOLOGIQUE ET SOCIOCULTURELLE.....	236
Islomova O., Habibullayev B. COMPARATIVE ANALYSIS OF ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	238
Rabbimova G. O'ZBEK TILI MILLIY KORPUSI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	242
Салимова Д. О ТРАКТОВКЕ СТИХОТВОРЕНИЯ «МАЛЕНЬКОЕ ПРОИСШЕСТВИЕ» АЙБЕКА В ПЕРЕВОДАХ НА РУССКИЙ ЯЗЫК.....	245
Бабакулов И., Матхалилова Г. СРАВНЕНИЕ СТРУКТУРЫ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	249

Юнусова М. ЛИТЕРАТУРНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЕОРИИ ПЕРЕВОДА И ЛИНГВИСТИКИ.....	251
Turdiyeva N. ERNEST XEMINGUEY IDIOLEKTI VA KONTSEPTOSFERASINING TARJIMA JARAYONIDAGI O'ZGARISHLARI.....	252
Юсупов Н. ҲОМЕРНИ АНГЛАШ ЁКИ МАСАЛАНИНГ СУБЪЕКТИВ ВА КОГНИТИВ ЖИҲАТЛАРИ (В. А. ЖУКОВСКИЙ ВА АДАБИЁТ).....	256

V SHO'BA

Усманова Х. XXI АСРНИНГ ЛИНГВОДИДАКТИК ИННОВАЦИЯЛАРИДА РАМЗЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ.....	261
Aliyeva N. NEROPSIXOLINGVISIKANING SHAKILLANISHI.....	264
Alieva G. L'ÉTUDE DES ETHNONYMES FORMÉS À PARTIR DE TOPONYMES DANS LA LINGUISTIQUE FRANÇAISE: APPROCHE LEXICALE, MORPHOLOGIQUE ET SOCIOCULTURELLE.....	266
Jumaniyazova Z., Turdiyev U. UY TA'LIMI VA "MEHRLI MAKTAB"LARGA BOLALARNI JALB ETISHNING VA JALB ETISHDAGI MUAMMOLARI.....	268
Allayorova S.B. PEDAGOGIK INNOVATSION LOGISTIKANING KOMMUNIKATIV MULOQOTNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....	271
Хамидова У. НЕОЛОГИЗМЫ КАК ОТРАЖЕНИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ: НОВЫЕ СЛОВА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	273
Khudayberganova N., Axmedova R. ISKANDAR FIRDAYSIY VA NIZOMIY TALQINIDA...277	
Usmonov S., Meliqulova D. 1980-1993-YILLARDA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR.....	281
Abdualiyeva J. TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA METODIKANING O'RNI.....	284
Jumaniyazova Z., Urazbayeva S. EKOLOGIK IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH.....	287
Islomova O., Habibullayev B. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TINISH BELGILARIDAN FOYDALANISH BORASIDAGI FARQLAR.....	290
Sharipova. L. CHET TILI DARSLARIDA O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	293
G'ulomova B. "ALPOMISH" DOSTONIDA POETIK SAN'ATLAR.....	294
Ma'rufboyev D. JAMOL KAMOL SHE'RIYATI HAQIDA MULOHAZALAR.....	296
Usmonova U. ERKIN VOHIDOVNING IJODIDA POETIKANING O'RNI HAMDA «O'ZBEGIM» QASIDASINING G'OYAVIY-BADIIY AHAMIYATI.....	298
Saydullayeva X. CHINGIZ AYTMATOVNING "JAMILA" QISSASIDAGI QAHRAMONLARNING XARAKTER TIPLARI.....	303
Halilova S. ABDULLA QODIRIYNING "MEHROBDAN CHAYON" ROMANIDAGI QAHRAMONLARNING XARAKTER TIPLARI.....	306
Allanazarova S. O'ZBEK TILI TARIXI HAQIDA ILMIY MA'LUMOTLAR VA MANBALAR.....	311
Mardonova S. CHO'LPONNING "ADABIYOT NADIR?" MAQOLASI XUSUSIDA.....	316
Kucharmuradova Sh. CELALIDIN RUMI'NIN ESERINDEKI OZELLIKLER.....	318
Urokov X.U. FILOLOGIK FANLARDA KOMPETENSIYA VA UNING KO'RINISHLARI.....	321
Xushmurodova M. TILSHUNOSLIKDA GAP BO'LAKLARINING AJRATILISH MASALASINING O'RGANILISHI.....	326
Azizova D. SINTAKTIK DERIVATSIYANING MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR O'RGANILISHIDAGI QARASHLAR.....	328

**MADANIYATLARARO MULOQOTNING
ADABIY-LISONIY TAKOMILI HAMDA TARJIMA NAZARIYASI VA
LINGVODIDAKTIKANING
DOLZARB MUAMMOLARI**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI**

31-may, 2025 yil

**LITERARY AND LINGUISTIC DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL
COMMUNICATION, AS WELL AS CURRENT PROBLEMS OF TRANSLATION
THEORY AND LINGUISTICS**

Republican scientific and practical conference

May 31, 2025

Muharrir: G.Rahimova
Musahhih: M.Sattarova
Tex.muharrir: Sh.Sohibov

© “Samarqand davlat chet tillar instituti» nashriyoti,
140104, Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 43

Bosmaxona tasdiqnomasi:



4268

Nashriyot tasdiqnomasi:

№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosishga ruxsat etildi: 20.05.2025-yil.

Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 ^{1/16}.

«Times New Roman» garniturası. Ofset bosma usuli.

Hisob nashriyot t. 19,1: Shartli b.t.: 29,4.

Adadi: 50 nusxa. Buyurtma № 20/05.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo‘limida chop etildi.
Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 43-uy.